

07.00.00 – TARIX FANLARI

QO‘QON XONLIGIDA QO‘LYOZMA KITOBLARNI BADIY BEZASH SAN‘ATI

*Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti*

*Annotatsiya: Maqolada Qo‘qon xonligi davrida, uning hududlarida kitobat qilingan qo‘lyozmalarining ichki badiiy bezaklari: unvon va frontispislar haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: lavvoh, unvon, qo‘lyozma kitob, ichki badiiy bezak, frontispis, lavha.*

ИСКУССТВО ХУДОЖЕСТВЕННОГО УКРАШЕНИЯ РУКОПИСНЫХ КНИГ В КОКАНСКОМ ХАНСТВЕ

*Абдуллаев Равшанджон Иномжона угли,
Институт истории АН Республики Узбекистан*

Аннотация: В статье рассматривается внутреннее художественное оформление рукописей, печатавшихся на его территории в период Коканского ханства: титулы и фронтисписы.

Ключевые слова: мемориальная доска, титул, рукописная книга, художественное оформление интерьера, фронтиспис, табличка.

THE ART OF ART DECORATION OF MANUSCRIPT BOOKS IN THE KOKAN KHANATE

*Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li,
Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

Abstract: The article deals with the internal artistic decoration of manuscripts printed in its territories during the Kokhan Khanate period: titles and frontispieces.

Key words: plaque, title, manuscript book, interior artistic decoration, frontispiece, plate.

Qo‘lyozmani chiroyli qilish, matnni mazmundor ifodalash va o‘quvchiga mutolaa paytida badiiy zavq bag‘shlash maqsadida kitobga ishlanadigan shams, unvon, lavha, jadval, doira, rasm, naqsh va boshqalar kitobning badiiy bezaklari bo‘lib, Qo‘qon xonligi davrida ham kitoblarda shu kabi bezaklarni ifodalash anchayin keng yoyilgan edi.

Xattotdan so‘ng qo‘lyozma kitobni tayyorlashdagi keyingi jarayon bilan lavvoh shug‘ullangan. Lavvoh atamasi qo‘lyozmaning boshlanishiga, qo‘lyozmaning tarkibiga kirgan har bir asarning, ba‘zan bob va fasllarning avvaliga lavha (unvon) ishlovchi hunarmand-ustaga nisbatan qo‘llangan [1; 131].

Lavvoh yaratilayotgan qo‘lyozmaning ustida bir nechta amallarni bajargan. Xususan, xattot tomonidan matn yozilmasdan bo‘sh qoldirilgan asarning boshlanish qismiga suyuq oltin bo‘yoqlar bilan katta va kichik naqshlar, o‘simliklar, gullarning tasvirlarini chizgan. Lavvohning bu chizganlari “unvon” yoki “sarlavha” deb nomlanib, Qo‘qon xonligi davrida kitobat qilingan ko‘plab qo‘lyozmalarda mohir lavvohlar tomonidan yaratilgan unvonlar tasviri uchraydi. Ular orasida Alisher Navoiy, Fuzuliy, Amiriy va Fazliylarning asarlariga ishlangan unvonlar yuksak mahorat, nozik did, ranglarning o‘zaro uyg‘unligi jihatdan boshqa asarlarga ishlangan unvonlardan ajralib turadi.

Alisher Navoiyning “Chor devon”iga lavvoh tomonidan 5 ta unvon ishlangan bo‘lib, dastlabki unvon debocha uchun [2; 1b-varaq], qolgan unvonlar [2; 7b, 128b, 243b, 355b-varaqlar] bo‘lsa har bir devonning boshlanish qismiga chizilgan. Ushbu unvonlar bir-birini takrorlamaydi, ularning har biri o‘ziga xos tuzilishga ega. Ranglar jilos, tasvir aniqligi, o‘simlik va gular, geometrik naqshlar qo‘lyozma ustida mahoratli lavvoh ish olib borilganligini ko‘rsatadi.

O‘zR FA ShI fondidagi Alisher Navoiyning “Hazoyin ul-maoniy” asari № 9746 raqamli nusxasiga ishlangan unvonlar (Asarda 2 ta unvon ishlangan birinchi unvon debocha boshlanishiga 1b-varaq, ikkinchisi asarning boshlanishiga chizilgan 7b-varaq) Qo‘qonda Navoiy asarlariga ishlangan unvonlarning eng yaxshilaridandir.

Lavvohlar tomonidan ayrim qo‘lyozmalarga bir xil ko‘rinishda yonma-yon xolatda unvonlar ishlangan, bunday unvonlar qo‘sh unvonlar deb nomlanib, ko‘proq xumdorlarning maxsus ko‘rsatmasi asosida tayyorlangan qo‘lyozmalarda uchraydi.

Umarxon buyrug'i bilan yaratilgan "Muhabbatnoma" to'plami tarkibidagi asarlarga ishlangan unvonlar Qo'qon xonligida lavvohlik ishini san'at darajasida taraqqiy etganligini ko'rsatib beradi. To'plamda jami 8 ta unvon [3; 7 b-8 a, 96 b-97 a, 177 b-178 a, 262 b-263 a, 353 b-354 a, 407 b, 432 b, 435 b] bo'lib, ularning 5 tasi qo'sh unvonlardir. Boshqa asarlardan farqli ravishda "Muhabbatnoma" to'plamida qo'lyozmani bezashda ishtirok etgan hunarmandlarning nomi ko'rsatib o'tilgan. Ularlar orasida Mir Niyozga Umarxon tomonidan qo'lyozmaga unvon ishlash buyurilganligi qayd etiladi [3; 477a-varaq]. Mir Niyoz o'z ishini mohirlik bilan bajarganligini qo'lyozmada ko'rishimiz mumkin.

Qo'sh unvon ishlangan qo'lyozmalardan yana biri Fuzuliy "Devon"idir [4; 2b, 3a-varaqlar]. "Devon"dagi qo'sh unvonlar "Muhabbatnoma" unvonlariga qaraganda oddiyroq shaklda bo'lib, oltin bo'yoq bilan tasvirlangan. Akasriyat bunday bezakli qo'lyozmalarga xos bo'lgan, turli naqshlar, o'simliklar tasviri uchramaydi.

Unvonlar ishlangan qo'lyozmalarning katta bir guruhini Fazliy Namangoniy tomonidan tuzilgan "Majmuai shoiron" tazkirasining nusxalari tashkil etadi. Tazkiraning turli davrlarda kitobat qilingan 15 ta nusxasi O'z FA ShI qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Ushbu nusxalarning bir qismida mahoratli lavvohlar tomonidan ishlangan unvonlar mavjud, ba'zi nusxalariga unvon ishlanmay qolgan.

"Majmuai shoiron"ning №7510 va 2371 raqamli nusxalari Qo'qon xoni Umarxon ko'rsatmasi bo'yicha ko'chirilgan va ularga shu davr qo'lyozmalariga xos unvonlar ishlangan. Jumladan, №7510 raqamli qo'lyozmada 3 ta [5; 1b-2a, 15a-16b, 119b-120a-varaqlar], 2371 raqamli qo'lyozmada ham 3 ta [6; 1b, 10b, 15b-varaqlar] unvon tasviri bor.

Tazkiraning № 5735 raqamli nus'hasi lavvoxning unvon ishlash jarayonini qanday kechganligini ko'rsatib beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek xattot unvon uchun bo'sh joy qoldirgan, lavvox dastlab unvon atrofiga jadval ishlagan. Odatda unvon jadvallari 3 – 4 yo'llik bo'lib, ularning orasiga naqshlar chizilgan va ohirida unvonning markaziy qismiga turli bo'yoqlardan foydalanib tasvir tushirilgan. № 5735 raqamli qo'lyozmada lavvox jadvallashdan keyingi ishlarni bajarmay, ajratilgan joylar bo'sh qoldirilgan.

"Majmuai shoiron"ning № 1242, 1309, 2329, 4569, 358, 1153 nusxalariga unvonlar ishlanmagan. Garchi ular orasida №1153 raqamli nusxasi oxirida tazkiraning 1273/1856 yilda ko'chirilganligi, xattot bu ishni Xoqon ibn al-hoqon Hazrati Said Muhammad Bahodir Sulton farmoniga ko'ra bajarganligini ta'kidlaydi [7; 234b-varaq]. Demak ayrim holatlarda qo'lyozmalar hukmdorlar farmoni bo'yicha ko'chirilgan bo'lsada ular lavvohlar qo'liga o'tmasdan, xattotdan so'ng muqovalashga berilavergan. Qolaversa XIX asar ikkinchi yarmida kitobat qilingan qo'lyozmalarda unvonlar tasviri kam uchraydi. Mavjudlari ham juda sodda ko'rinishda, ko'p hollarda unvon uchun ajratilgan joy bo'sh qoldirilgan.

Abdulvose Manzurning "Tazkirai sultoniy" tarixiy didaktik asarning 3 ta qo'lyozma nusxasi bugunga qadar saqlanib qolgan. Ularning O'zR FA ShI fondidagi ikkita nusxasiga unvon ishlangan bo'lib, № 9293 raqamli nusxaga ishlangan unvon sodda ko'rinishda, 3 ta to'liq bo'lmagan doiralarda tasviri, ular zarhal rangda bo'yalgan, doiralarda atrofi qizil va ko'k rangli nuqtalar bilan bezatilgan [8; 1b-varaq]. Unvon uchun ajratilgan joydagi katta bo'shliqni to'ldirish uchun doiralardan chiziq chiqarib, nuqtalar yordamida biroz shakl berilgan.

Asarning № 692 raqamli nus'hasidagi unvon tuzilishi jihatdan № 9293 raqamli nusxadagi unvon bilan o'xshash. Faqat yarim doiralarning joylashuvi jihatdan farqlanadi. Shuningdek doiralarda ichiga hech qanday rang berilmagan [9; 1b-varaq]. Uchinchi nusxada bo'lsa unvon o'rni bo'sh qoldirilgan [10; 68. 1b-varaq].

Xonlik tarkibiga kiruvchi O'ratepa viloyatida 1248-yilda kitobat qilingan qo'lyozmaning unvonidagi [11; 1b-varaq] tasvirlar "Tazkirai sultoniy" unvonlariga o'xshash bo'lib, unvon markazi yarim doiralardan tarkib topgan va ular oltin suvi bilan bo'yalgan. Doiralarda atrofi o'simliklar tasviri bilan o'ralgan va qizil, ko'k nuqtalar bilan to'ldirilgan.

Qo'lyozmalarga unvonlar turli hajmda ishlangan bo'lib, sahifaning uchdan bir qismini yoki yarmini egallagan va odatda qo'lyozma 1 varog'ining orqa tomon yuqora qismiga ishlangan. Matn unvondan keyin boshlangan. Ba'zan unvonlar qo'lyozma 1 varog'ining har ikkala tomoniga ham chizilgan. Misol uchun, №5735 raqamli qo'lyozmaning 1 varaq a va b betlarida unvon ishlari oxiriga etkazilmay qolgan. 1 a betda unvon ostida matn bitilmasdan naqshlar tasvillangan.

Ko'plab qo'lyozmalarda garchand umuman lavvohning ishi ko'rinmasada xattot tomonidan matn boshlanishida unvon uchun ma'lum joy qoldirib ketish an'ana tusini olgan.

Turonzaminda yaratilgan qo'lyozmalarning ichki bezaklari uchun zarur hisoblangan unsur (element)lardan biri sifatida unvonlardan tashqari ayrim qo'lyozmalarga frontispislar ham chizilar edi. Frontispis jimjimador qilinadi, turli oltin bo'yoqlar bilan ko'proq o'simlik stilida yoki geometrik xarakterdagi naqshlarga ega bo'ladi [12; 19]. Odatda frontispis qo'lyozmalar matni boshlanishi oldidan bitta yoki ikkita sahifaga ishlanadi.

Qo‘qonda kitobat qilingan Fuzuliy devonining [4] 1 b va 2 a betlariga oltin bo‘yoqlar bilan o‘simliklar va gullar tasvirlangan frontispis ishlangan.

Frontispisning asar matnining boshlang‘ich qismi yozilgan qo‘sh sahifaga ishlangan turi ko‘p uchraydi. Qo‘qonda XVIII-XIX asrlarda kitobat qilingan Qur‘oni karimning bir nechta nusxalarida qo‘sh frontispislar mavjud. To‘g‘ri burchakli rombgga o‘xshash murakkab ishlangan, gul, yaproq va naqshlar bilan bezatilgan bunday frontispislar Sharq qo‘lyozmalarini bezash san‘ati klassikasining iftixori sanalgan [13; 58].

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” asarining dastlabki ikki sahifasiga ishlangan frontispisdagi [14; 1b-2a-varaqlar] tasvirlar, “Muhabbatnoma” to‘plamidagi frontispislardan [3; 1, 350b-351a] ularning yaratuvchilari xonlikning eng mohir san‘atkor ustalari ekanligi anglashiladi.

Unvonlar va frontispis kabi bezaklar ko‘p hollarda kulliyotlarlar, dostonlarlar, diniy kitoblar, devonlarlar, ba‘zan tarixiy asarlarda ham uchraydi. Ulardagi tasvirlar asar mazmunini ifoda etmasada, bevosita kitobni varaqlagan o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi.

Bir nechta asarlardan tarkib topgan qo‘lyozmalar, yoki bir asarning bir qancha boblari mavjud bo‘lgan taqdirda unvonlar ularni birini ikkinchisidan ajratish uchun ham xizmat qilgan. Ba‘zi qo‘lyozmalarining unvon ishlangan varog‘iga kichik o‘lchamdagi qiyqimcha – mato parchasi qo‘yib ketilgan bo‘lib [15], bu orqali kitob tarkibidagi asarlar bir-biridan oson farqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иўлдошев И. Ўзбек китобат санъати ва терминологияси. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2018. – 303 б.
2. Alisher Navoiy. Chor devon. O‘zR FA ShI, qo‘lyozma, № 1709.
3. Muhabbatnoma. To‘plam. Istanbul Universiteti kutubxonasi qo‘lyozma №T 5452
4. Fuzuliy. Devon. O‘zR FA ShI, qo‘lyozma, № 150.
5. Fazliy Namangoniy. Majmuai shoiron. O‘zR FA ShI qo‘lyozma, № 7510.
6. Fazliy Namangoniy. Majmuai shoiron. O‘zR FA ShI qo‘lyozma №2371.
7. Fazliy Namangoniy. Majmuai shoiron. O‘zR FA ShI qo‘lyozma № 1153.
8. Abdulvose Manzur. Tazkirai sultoni. O‘zR FA ShI qo‘lyozma № 9293.
9. Abdulvose Manzur. Tazkirai sultoni. O‘zR FA ShI, qo‘lyozma, № 692.
10. Abdulvose Manzur. Tazkirai sultoni. O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi fondi, qo‘lyozma, № 68.
11. Abdurahmon Jomiy. Nafahot-ul-uns. O‘zR FA ShI, qo‘lyozma, № 12407.
12. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1971. – 197 б.
13. Шарқ миниатюраси / Тузувчи Исмаилова Э.М. – Тошкент: Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1980. – 220 б.
14. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. O‘zR FA ShI, qo‘lyozma, № 726.
15. Alisher Navoiy. Chor devon. O‘zR FA ShI, qo‘lyozma, № 1715, Alisher Navoiy. Xamsa. O‘zR FA ShI, qo‘lyozma, № 1561.